TOURISM AND TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Barisova Sevinch Ruzimurodovna
Student, Department of Tourism and Cultural Heritage
"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage
https://doi.org/10.5281/zenodo.15675644

Abstract. *This article discusses the stages of tourism development in Uzbekistan, its impact on the economy, visitors' impressions of the trip, and opportunities created for the country's citizens. Also, the problems that can be an obstacle to tourism, their solutions, and the results of reforms and international agreements implemented through tourism are also shown. Currently, the development of the country's economy is not only related to business and trade, but also to tourism and job opportunities created by tourism. The change in the way of life of the population, the exchange of cultures, and the formation of a new worldview are some of the advantages brought by tourism. Along with this, you can see in this article brief information about travel, its importance for human life, travel destinations and reasons, as well as the time and expenses spent by tourists on travel.*

Keywords: *tourism, reform, tourist, growth, history, traditions, culture, experts, issue, economy, profit, opportunity.*

Annotatsiya*. Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm rivojlanishining bosqichlari, uning iqtisodiyotga ta'siri, tashrif buyuruvchilarning sayohatdan olgan taassurotlari va mamlakat fuqarolari uchun yaratgan imkoniyatlari haqida muhokama qilingan. Shuningdek, turizmga qarshi to'siq bo'la oladigan muammolar, ularning yechimlari hamda turizm orqali amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro kelishuvlarning natijalari ham ko'rsatib o'tilgan. Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi nafaqat bizness va savdo, balki turizm va turizm yaratgan ish imkoniyatlari bilan bog'liq. Aholi hayot tarzining o'zgarishi, madaniyatlar almashinuvi, yangi dunyoqarashning shakllanishi qaysidir ma'noda turizm olib kelgan ustun jihatlardandir. Shu bilan birgalikda, sayohat, uning inson hayoti uchun qay darajada muhimligi, sayohat manzillari va sabablari hamda sayyohlar tomonidan sayohat uchun sarflangan vaqt va xarajatlari bilan bog'liq holatlar haqida qisqacha ma'lumotlarni ushbu maqolada ko'rishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *turizm, islohot, turist, o'sish, tarix, urf-odat, madaniyat, mutaxassis, muammo, iqtisodiyot, foyda, imkoniyat.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этапы развития туризма в Узбекистане, его влияние на экономику, впечатления посетителей от поездки, а также возможности, созданные для граждан страны. Также показаны проблемы, которые могут стать препятствием для туризма, пути их решения, а также результаты реформ и международных соглашений, реализуемых посредством туризма. В настоящее время развитие экономики страны связано не только с бизнесом и торговлей, но также с туризмом и возможностями трудоустройства, создаваемыми туризмом. Изменение образа жизни населения, обмен культур и формирование нового мировоззрения – вот некоторые из преимуществ, которые приносит туризм. Наряду с этим, в данной статье вы можете увидеть краткую информацию о путешествиях, их значении для жизни*

человека, направлениях и причинах путешествия, а также времени и расходах, затраченных туристами на путешествие.

Ключевые слова: *туризм, реформа, турист, рост, история, традиции, культура, эксперты, проблема, экономика, прибыль, возможность.*

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakat hayotida yangi islohotlar, o'zgarishlar va dunyo bilan bog'lanish jarayoni amalga oshirila boshlandi. Darhaqiqat, arslar mobaynida o'z tarix va an'analarini saqlab qolgan, tarixiy durdonolariga ega bo'lgan, jahonning ilk sivilizatsiyalaridan birini o'z ichiga olgan hudud, dunyo e'tiborini ham tez fursatda o'ziga jalb qildi. O'zbek hayot tarzini, madaniyatini, tarixiy qadamjolarini va an'analarini yoyishda turizmning o'rni beqiyos. Yillar davomida turizmning davlat iqtisodiyotiga keltirayotgan foydasi albatta aholi hayot tarzining yaxshilanishi va ko'plab islohotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, turizmni rivojlantirish uchun faqatgina yurtdagi tarixiy binolar va ziyoratgohlar emas, balki ularning qadr-qimmati va boy o'tmishini ko'rsatib beruvchi, yangidan yangi g'oyalar bilan unutilmas sayohatlar tashkil etuvchi, tashrif buyuruvchilarning huquqlarini himoya qiluvchi hamda o'zbekona har bir an'ana, urf-odat va milliylikni to'laqonligicha ko'rsatib beruvchi mutaxassis kadrlar ham lozim. Mamlakatda turizmni yanada takomillashtirish va tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston haqida qiziqishlarini oshirish uchun albatta yangi uslub va g'oyalar amalga oshirilmoqda. Ammo, ekologik va infratuzilmaga oid muammolar turizm rivojlanishini pasaytiradigan holatlardan biridir. Shunday ekan, bu muammolarga qarshi yechim topilishi va turizm sohasida yangi islohotlar amalga oshirilishi, mamlakat iqtisodiyotining sezilarli darajada o'sishiga sabab bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turizm rivoji uchun O'zbekistonda hukumat tomonidan yaratilyotgan me'yoriy hujjatlar va imkoniyatlar bu sohaning o'sish jarayonini yaqin o'n yil ichida sezilarli darajada tezlashtirdi. "O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1992-yil 28-iyuldagi Farmoniga binoan "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi tashkil etildi. (G'ulomxasanov & Rahmatillaev, 2021) Shuningdek, turizm rivojlandan davlatlarda mavjud bo'lgan zamonaviy yondashuv va usullardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Albatta, zamonaviy texnikalar va qulay sharoitlar har qanday davlatda qiyinchiliklarsiz sayohat qilish imkoniyatini yaratadi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ko'plab rivojlangan davlatlarga tashrif buyurib, O'zbekiston o'tgan uch asr davomida qay darajada rivojlanishdan orqaga qolgani haqida maa'lum qilgan edi. Ammo, turizm sohasida olib borilgan bir muncha o'zgarishlardan so'ng O'zbekistonda turistlar soni orta boshladi. "Shu tufayli, "Jahon sayohat va turizm kengashi" (WTTS) ning ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi 2013-yilda turizm sohasida eng tez rivojlangan beshta mamlakatlar qatoriga qo'shildi" (Tuxliyev va boshqalar, 2014). Darhaqiqat, bu dastlabki natija bevostida tarixiy yodgorliklarda olib borilgan qayta ta'mirlash ishlari bilan bog'liq edi. Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganidek: "Turizm soda qilib aytganda, dunyoni tushunish, dunyoni anglash, shu bilan birga dunyo sahniga chiqish

demakdir. Biz ana shu muhim sohani rivojlantirishimiz, uning keng imkoniyatlaridan foydalanishimiz kerak" ("Turizm asoslari" kitobidan, 2014)

Bu yangi soha nafaqat mamlakat iqtisodiyotining rivojiga, balki yoshlar uchun zamonaviy ta'lim tizimi shakllanishi va yosh kadrlar uchun yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari turizm rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning baland ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin. "Turizm sohasida ayniqsa innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turizm rentabelligi va rivojlanish dinamikasi bo'yicha neft va gazni qazib olish va qayta ishlashdan keying o'rinda turadi" (Raximov, 2022). Shunday ekan, eng muhim sohalar bo'yicha islohotlar odatda, turizm olib kelgan foyda orqali amalga oshiriladi, O'zbekiston hududidan "Buyuk ipak yo'li" ning o'tganligi hamda arxeologik topilmalarga boyligi va vodiy va vohalik hududlardan iboratligi turistlarni O'zbekiston haqida qiziqishlarini ortishiga sabab bo'ladi. YUNESCO ro'yxatiga qabul qilingan me'moriy yodgorliklar, an'analar va joylar dunyoning biror chekkasidagi insonga O'zbekistonga tashrif bururishi uchun maslahat bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, agar mamlakatdagi ekologik muammolarga qarshi loyihalar amalga oshirilib, toza havo, atrof-muhit va suvga erishilsa, turistlarga O'zbekiston haqida o'zgacha hissiyot ulasha olgan bo'lar edik. Yo'llardagi muammo va tirbandliklar ham ko'pincha tursitlar tomonidan e'tirozga sabab bo'ladi.

Darhaqiqat, axborot vositalarining ham turizmni targ'ib qilishga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Huddi, aksariyat insonlar, Parij, London yoki bo'lmasa Istanbul haqida orzu qilishlaridan oldin, u yerdagi turistik manzillardan internet orqali xabardor bo'lishganidek, hozirgi kunlarda O'zbekiston haqida ijtimoiy tarmoq orali ko'rib, tashrif bururuvchi sayyohlar ham kam emas. Agar, kino sanoatida biror bir tarixiy kino, tarixiy joylarda suratga olinsa, shu bilan birgalikda suratga olinayotgan binoning tarixi va bebaholigi, o'sha bino o'tmishda qanday vazifa bajargani va nima sababdan qurilgani haqida ochiq-oydin ko'rsatilib berilsa, bu ham turizm sohasida muvaffaqiyatli reklama bo'lib xizmat qilishi mumkin. Fayozbek Mamatazizov ta'kidlganidek: "Turistlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Shu munosabat bilan qator xorijiy mamlakatlar bilan hukumatlararo va idoralararo shartnomalar imzolangan". (2023). Xalqaro shartnomalar, O'zbekiston fuqarolari uchun ham katta yengilliklar olib kelmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik munosabatlari mustahkamlanishi uchun vizasiz tartib tizimi joriy qilinganligi va hatto Qirg'iziston Respublikasiga xalqaro passportsiz ham tashrif buyurish mumkinligi, yaratilgan bu imkoniyatlarning isbotidir. Nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, shu bilan birga, dunyodagi 76 ta davlat O'zbekiston uchun viza tizimini bekor qilgan.(2024). Bu esa aholining sayohatga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Sayohat uchun vaqt va pul sarflash, insonlarda o'rtasida ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Chunki, sayohatdan zavqlanish, yangi madaniyatlarni o'rganish orqali yana sayohat qilishga bo'lgan xohish ularga yaxshi ishlash va yaxshi yashash istagini uyg'otadi. Umuman olganda, turizmning inson hayoti uchun ustun jihatlari ko'p. "Shu bilan bir qatorda, yildan yilga ichki turizmning ham ijobiy natijalar qayd etayotganligini ko'rishimiz mumkin. 2016-2019 yillar orasidagi ma'lumotlarga ko'ra ichki turizm mahalliy aholi o'rtasida 2 barobarga o'sgan". (G'ulomxasanov & Rahmatillaev, 2021). Agar, respublikada qabul qilingan turistlar soni 1996-yilda 550000 kishiga yetgan bo'lsa, 2024-yilda bu miqdor 10,000000 dan oshishi ko'zda tutilyapti. Turizmning Respublika hayotiga olib kelgan ijobiy tomonlari juda ko'p va kelajakda ham rivojlanib borishi O'zbekistonni dunyo e'tirofida o'zgacha qiziqish bilan tilga olinishiga sababchi bo'ladi.

XULOSA

O’zbekistonda turizm rivojlanishi, yosh avlod uchun yangi eshiklarni ochmoqda. Yaxshi hayot tarzi, sifatli ta’lim va qulay ish o’rinlari turizm orqali o’sib borayotgan iqtisodiyotning natijasidir. Bu sohaning rivojlanishi o’z cho’qqisiga chiqishi uchun ham, turizmga doir islohotlar, loyihalar va eng muhimi bilimli va tajribali kadrlarga ega bo’lishimiz kerak. Chunki, turizm sohasidagi mutaxassislar, O’zbekistonda turizmning kelajagidir. Turizm ular orqali o’sadi va dunyoni o’ziga jalb qiladi. Kun kelib, O’zbekiston va uning tarixiy shaharlari dunyoning eng oldi turizm manzillari bo’lishiga ishonaman. O’zbek an’anasi, hayot tarzi va madaniyati turistlarni ko’rishga va his etishga undaydigan holat bo’lishi bizning sa’y-harakatlarimizga bog’liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. G’ulomxasanov, E. M. o’g’li, & Rahmatillaev, O. X. o’g’li. (2021). O’zbekistonda turizm sohasining davlat rivojiga qo’shgan hissasi. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, *1*(1), 53–54.
2. Mamatazizov, F. P. o’g’li. (2023). O’zbekistonda turizm sohasining shakllanishi va rivojlanishi. *Miasto Przyszlosci*, *39*, 244–245.
3. Raximov, Z. O. (2022). O’zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhimligi. *Kelajak Bunyodkori*, *2181–2705*, 222–223.
4. Tuxliyev, I. S., Hayitboyev, R., Safarov, B. S., & Tursunova, G. R. (2014a). Turizm asoslari. *“Fan va Texnologiya” Nashriyoti*, *53*, 3–7.
5. https://embassies.net/uzbekistan-passport-visa-free-countries